QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTALASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Mashrab Mardonov
Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi 2-bosqich tayanch doktoranti
https://doi.org/ 10.5281/zenodo.14736068

Annotasiya. *Qishloq xo'jaligi har bir mamlakat iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan biri hisoblanadi. Bu soha aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, mamlakat eksport salohiyatini oshirish kabi ko'plab vazifalarni bajaradi. Biroq, qishloq xo'jaligi o'ziga xos xatarlar va tavakkallar bilan bog'liq bo'lib, bu xavf-xatarlarni samarali boshqarish uchun sug'urta tizimining ahamiyati katta. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi sug'urtasini takomillashtirish yo'llari haqida batafsil to'xtalib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Qishloq xo'jaligi, Sug'urta tizimi, Sug'urtani takomillashtirish, Tabiiy ofatlar, Fermerlar himoyasi, Sug'urta mahsulotlari, Moliyaviy barqarorlik*

Kirish: Qishloq xo'jaligi har qanday davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega strategik sohaga kiradi. Bu soha nafaqat aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi, balki milliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, yangi ish o'rinlarini yaratadi va eksport imkoniyatlarini kengaytiradi. Aholi soni oshib borayotgan bugungi kunda qishloq xo'jaligi yanada katta e'tiborni talab etadi, chunki aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ta'minlash oziq-ovqat xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi tabiiy omillar va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy xatarlar bilan bog'liq bo'lgani sababli, ushbu sohada barqarorlik va himoya mexanizmlari muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligida barqarorlikka erishish uchun har qanday noxush sharoitlarda fermer xo'jaliklarini va dehqonlarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash zarurati tug'iladi. Tabiiy ofatlar, qurg'oqchilik, sel, zararkunandalar hujumi, o'simlik kasalliklari kabi xavflar hosilning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin va bu fermerlar va agrokompaniyalar uchun katta iqtisodiy zarba beradi. Shu nuqtai nazardan, qishloq xo'jaligini himoya qilishning asosiy vositalaridan biri bu sug'urtalash tizimi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi sug'urtasi nafaqat ishlab chiqaruvchilarga himoya beradi, balki ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlab, investitsiyaviy salohiyatni oshiradi va umuman olganda iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Tahlil va Natijalar.

Mamlakatimiz qishloq xo'jalik sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning asl maqsadi, bu mavjud yer va suv resurslaridan oqilona va samarali foydalana oladigan, munosib egalar qo'liga topshirishdir. Oqilona va samarali xo'jalik yuritish tizimini yaratish uchun, boshqa moliyaviy tizimlar qatori, sug'urta xizmatlarini rivojlantirish zarurati ham ushbu sohada bugungi kunda yechimini kutayotgan masalalardan biridir. Zero, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining kutilmagan noxush ob-havo va tabiat injiqliklariga qanchalik ta`sirchanligini inobatga olgan holda, ushbu sohada xizmat ko'rsatayotgan korxonalar moliyaviy barqarorligini kafolatlash, fermerlar qatori, ushbu sohada band bo'lgan aholi daromadlari va ish o'rinlarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Qishloq xo'jalik sohasi, bir qator sabablarga ko'ra, ko'zlangan natijaga erishish va xo'jalik yuritish sharoitlari shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillarni chuqur o'rganishni talab

qiladi. Qishloq xo'jaligi sohasida qaltisliklarni tan olmaslik va ularni boshqarish tizimini rivojlantirishdan bosh tortish ayrim qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini, ba`zan qishloq xo'jaligi sohasini va umuman jamiyatni uzluksiz rivojlanishiga, agrar sohani samarali kreditlash tizimini yaratishga to'sqinlik qilishi mumkin. Demak, qishloq xo'jalik sug'urtasi tizimining asosiy maqsadi va vazifasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlagan holda ularga tabiat injikliqlariga qarshi moliyaviy himoyani taklif etishdan iborat.

Bugungi kunda "O'zagrosug'urta" Kompaniyasi Respublika sug'urta bozorida o'zining nufuzli o'rniga ega bo'lib, 187 ta xududiy bo'linmalari, 21 ta shu`ba korxonalari hamda 600 taga yakin shaxobchalari orqali yuridik va jismoniy shaxslarga 90 ga yaqin sug'urta turlari bilan sug'urta xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Hukumatimiz tomonidan istiqbolda qishloq xo'jaligini rivojlantirishni fermerlik harakati bilan bog'lar ekan, bu xol Kompaniya faoliyatida ham o'z aksini topgan. Yildan yilga fermer xo'jaliklariga taklif etilayotgan sug'urta turlari ko'payib, fermerlar sug'urta kamrovini kengaytirish uchun shartnomalar shartlari yengillashtirilmoqda. Fermerlarga qulay va tez xizmat ko'rsatish uchun, har bir tuman xududida agentlik shaxobchalari ochilmoqda, qishloq aholisi bandligini oshirish va keng qamrovli sug'urta xizmatlarini ko'rsatish maqsadida, maxalla va qishloq fuqarolar yig'inlarida o'rindosh agentlar yollash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, bu borada izchil ishlar olib borilmoqda. Bu o'z-o'zidan Kompaniya tomonidan fermer xo'jaliklari bilan kelajakda keng ko'lamli va samarali ish olib borish maqsadini oshkor etadi.

Xozirgi kunda Kompaniyamiz tomonidan Respublikamiz fermerlariga quyidagi sug'urta turlarini:

paxta va g'alla hosilini sug'urtalash;
qishloq xo'jalik ekinlarini qayta ekishdan sug'urtalash;
ko'p yillik dov-daraxtlarni sug'urtalash;
bog' hosilini sug'urtalash;
sholi hosilini sug'urtalash;
chorva mollarini sug'urtalash;

issiqxonada yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik maxsulotlarini sug'urtalash kabi 40ga yakin sug'urta turlarini taklif etamiz. Qishloq xo'jaligi ekinlari hosili quyidagi qaltisliklardan sug'urtalanadi, tabiiy ofatlardan: yongin, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuprokning cho'kishi, sel, yashin urishi, do'l, qalin kor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, garmsel, sug'orish manbalaridagi suvsizlik yoki kamsuvlik, suv bosishi, zararkunandalar, biologik kasalliklar, uzoq davom etgan yog'ingarchilik tufayli ekinning yotib qolishi natijasida hosilning nobud bo'lishidan sug'urtalanadi.

2011 yilning 9 oyi davomida «O'zagrosug'urta» Davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi tomonidan jami sug'urta hodisalari bo'yicha 3809,7 mln. so'm sug'urta tovoni to'lab berilgan bo'lsa, shundan 403 ta fermer xo'jaliklari ekinlari hosilini sug'urtasi bo'yicha 689,8 mln. so'm, tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga berilgan imtiyozli kreditlarni qaytarilmasligi uchun tijorat banklariga 97,4 mln. so'm, chorva mollari sug'urtasi bo'yicha 30,3 mln. so'mni tashkil etdi.

Ma`lumki, bozor iqtisodi sharoitida o'zaro munosabatlar asosan sub`ektlar o'rtasida tuziladigan shartnomalar asosida yo'lga qo'yiladi. Har bir sug'urta tashkiloti konunda belgilangan tartibda sug'urtalanuvchilar bilan o'zaro majburiyatlarini, ma`suliyatlarini javobgarlik doirasini,

majburiyat muddatlarini va boshqa ko’rsatkichlarni tuziladigan shartnomalarda to’lik ifodalashlari va so’zsiz bajarishni ta`minlashlari lozim bo’ladi.

Qishloq xo’jaligida sug’urta tizimini rivojlantirish bu sohada shartnomaviy munosabatlar bo’yicha tomonlarning ma`suliyatlarini oshirishga, korxonalar moliya idoralaridan mablag’ jalb eta bilish qobiliyatiga hamda ularning moliyaviy barqarorligini ta`minlashga ijobiy ta`sir ko’rsatadi.

Shu bilan birga, olinadigan hosilini extiyotlash maqsadida barcha imkoniyatlaridan foydalanib sug’urta shartnomasi tuzgan fermer xo’jaliklariga kompaniyamiz tomonidan turli hodisalar natijasida ko’rgan zararini olingan sug’urta javobgarligi doirasida sug’urta tovoni orqali qoplash kafolatlanadi.

Xulosa.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida qishloq xo‘jaligi sug‘urtasiga bo‘lgan qiziqish oshib bormoqda va ko‘plab mamlakatlar bu sohani qo‘llab-quvvatlash uchun turli dasturlar ishlab chiqmoqda. Masalan, AQSh, Kanada, Yevropa davlatlari va Hindistonda qishloq xo‘jaligi sug‘urtasini rivojlantirish bo‘yicha joriy etilgan tizimlar o‘zining yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Bu davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta tizimlarini diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, davlat ko‘magini kengaytirish kabi omillar qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi tizimining muvaffaqiyatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi sug‘urtasini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, qishloq xo‘jaligi sug‘urtasiga oid yangi qonunchilik hujjatlari qabul qilindi, davlat tomonidan subsidiyalar ajratish va imtiyozlar taqdim etish mexanizmlari yo‘lga qo‘yildi. Bu chora-tadbirlar sug‘urta tizimining yanada barqaror va ishonchli bo‘lishiga yordam beradi. Biroq, ushbu tizimni yanada takomillashtirish va zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati hamon dolzarbligicha qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Allayorov, O., & Xudoyqulov, I. (2019). Qishloq xo'jaligida sug'urta tizimini takomillashtirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash. Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti.
2. Jabborov, F. (2020). "Qishloq xo'jaligi sug'urtasini rivojlantirishda davlat siyosati va uning iqtisodiy ahamiyati". Iqtisodiyot va innovatsiyalar ilmiy jurnal, 5(3), 12-19.
3. Karimov, Sh. (2018). O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida sug‘urta tizimini rivojlantirish masalalari. Toshkent: Sharq nashriyoti.
4. Mirzayev, M. (2021). "Qishloq xo'jaligida tavakkalchiliklarni boshqarish va sug'urta xizmatlarini takomillashtirish". Agroiqtisodiyot ilmiy-amaliy jurnali, 7(2), 45-52.
5. FAO (2020). Agricultural Insurance in Developing Countries: The Role of Risk Management and Subsidies. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
6. Mishra, P., & Kumar, N. (2019). Agricultural Risk Management and Insurance: A Guide for Farmers and Policymakers. New Delhi: Academic Press.